

Erkin Vohidov she'riyati lingvopoetikasi

Haydarova Rushana

Guliston davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin Vohidov she'rlari lingvopoetik jihatdan qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: lingvopoetika, leksik poetika, fanetik poetika, antonim, metafora, metonimiya.

Bugungi kunda jamiyatning taraqqiy etishi, avvalo, fanning oldiga insonning mustaqil va farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan amaliy ahamiyatga molik mazmun-mohiyatga ega tadqiqotlar yaratish talabini qo'ymoqda. Bu ilm-fanning barcha sohalarida, xususan, tilshunoslik sohasida ham yangicha yondashish va zamon talabiga javob beradigan tadqiqotlarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatadi. Bizga bu borada muhim yo'llanma bo'lib xizmat qilayotgan Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning quyidagi so'zlari ham shundan dalolat berib turibdi: “Umuman, men fanni ilg'or, taraqqiyot, progress degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligi, mustaqil bo'lgan millatning kelajagi buyukligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olga siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim”[1]

Erkin Vohidov haqida gapirar ekanmiz, avvalo, hech bir o'zbek millati inkor eta olmaydigan qo'shiq qilib kuylangan yuzlab yirik she'rlari, vatanparvarlik ruhida sug'orilgan dostonlari, g'azallari ko'z o'ngimizda gavdalanadi. E. Vohidov ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlarga qo'l urib, mumtoz adabiyot tajribalarini yanada boyitish, yanada mukammallashtirishga intildi.

Shoir she'rlari tili o'zining ekspressivligi, soddaligi, ravonligi va jarangdorligi bilan ajralib turadi. She'rdagi gaplar strukturasi stilistik vositalar bilan yana ham jozibador va ta'sirchanlikka ega bo'ladi. Bunday stilistik vositalar fikrni tinglovchiga tez va oson yetkazish imkonini beradi. Quyida Erkin Vohidov she'rlariga o'ziga xos jozibadorlik baxsh etuvchi jihatlari haqida so'z yuritamiz.

Lingvopoetika sohasi ham til, ham adabiyot fanini o‘zida birlashtirgan sohalardan biridir. Bir so‘z bilan aytganda, badiiy ijod namunalarimizning til xususiyatlarini o‘zida jamlagan o‘ziga xos soha. Badiiy nutqning ta’sirchanligini ta’minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo‘lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev «sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog‘lovchilarning maxsus qo‘llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so‘roq» kabi uslubiy figuralar «fikrning o‘ta ta’sirchan ifodalanishi»ga xizmat qilishini ta’kidlaydi.[2]

1. Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlima qasd qayrab —

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,

Qanot qoqmoqqa qo‘ymaysan.

Qarab qo‘ygil qiyo,

Qalbmni qizdirsin quyoshing, qiz. (Alliteratsiya)

Nutq tovushlarining badiiy matnda poetik aktuallashuvi ularning takrorlanishi natijasida ham sodir bo‘ladi. Badiiy nutqning ohangdorligini va ta’sirchanligini ta’minlashda ana shunday tovushlar takrorining o‘rni beqiyosdir. *She’riy nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishiga alliteratsiya deyiladi.*

2. Bog‘ingdan gul termagan kim bor?

Sen haqingda yozib to‘rt satr,

Sirdoshiga asta ko‘rsatib,

Qo‘shni qizga bermagan kim bor? (Ritorik so‘roq)

3. Alqissa juda qadim, j aholatli zamonda,

Bir donishmand, ulug‘ hakim , o‘tgan ekan jahonda.

U kun bu‘yi giyoh terib, kezib bog‘u biyobon,

Odamlarga shifo berib, yashar ekan shodumon.[3] (Inversiya)

Poetik leksikologiya yo‘nalishining tadqiqot ko‘lami juda keng qamrovlidir. U o‘z doirasida sinonim, omonim, antonim so‘zlarni, ma‘no ko‘chishlarining barcha jabhalarini (metafora, metonimiya, sindekdoxa, vazifadoshlik, kinoya), chegaralangan leksikalarni (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...) tahlil qiladi.

Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko‘rinmagan, biroq san’atkorona o‘tkir nigoh bilan ilg‘angan o‘xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko‘chimlar o‘quvchini hayratga soladi, unga zavq bag‘ishlaydi. Badiiy asarda eng ko‘p qo‘llanuvchi ko‘chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma‘no ko‘chishida narsa-hodisalar orasidagi o‘xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o‘xshatish deb atash mumkin.

Shoirimiz ijodida betakror yashirin o‘xshatishlar (metaforalar) bisyordir:

1. Ufqlarga qo‘yib guldasta,

Tog‘ ortidan ko‘tardi-da bosh, Pastga boqdi cho‘qqidan asta Oltin qalam tutgan bir naqqosh.

2. Subhidam oftobi ko‘kning Gumbazida yondi, yo Yondi bu firuza gumbaz Subhidam oftobida.

3. Tun bilan yig‘labdi bulbul G‘uncha hajri dog‘ida.

Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib Qolmish uning yaprog‘ida.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov ijodini tahlil qilish jarayonida ijod tilining betakrorligi, lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo‘nalishlarini o‘zida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo‘ng‘urov, X. Rustamov. O‘zbek tili stilistikasi. T.: O‘qituvchi, 1983
2. Abdullayeva A. O‘zbek tilining eksperrivlikning ifodalanishi
3. Erkin Vohidov. Ishq savdosi.